

# SCIENCE

PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 11

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 11 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

## **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Kucharov Jamshid Qulnazarovich*

ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TO'PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) ..... 11-14

*Taʼbaev Amirbek Ashirbaevich*

Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР МАСАЛАСИ ..... 15-23

*Ҳамаев Нодирбек Мўминович*

ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) ..... 24-32

*Tilavova Shahnoza Salohitdinovna*

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING FAOLIYATI ..... 33-36

*Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич*

НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ ..... 37-42

*Артикбаев Ойбек Салимахамаатович*

ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) ..... 43-56

*Atavullayeva Shaxlo Musoyevna*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Қўчқаров Файзулло Абдужабборович*

ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ..... 63-70

*Shao Junling*

ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76

*Ashirov Nurmurod Qulmatovich*

RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN KENG KO'LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 77-82

*Togayev Salim Sobirovich*

BANK XIZMATLARIGA BO'LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOZNI JALB QILISHNING SAMARALI YO'LLARI ..... 83-89

*Саттаров Ғанижон Озодович*

МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ..... 90-96

|   |         |
|---|---------|
| <i>Yakubova Samira</i><br>LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING .....   | 97-102  |
| <i>Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich</i><br>OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI .....   | 103-109 |
| <i>Egamberdiyeva Salima Rayimovna</i><br>XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....  | 110-118 |
| <i>Xolmamatov Diyor Haqberdievich</i><br>SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH .....   | 119-127 |
| <i>Gafurova Dilshoda</i><br>INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS .....   | 128-132 |
| <i>Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich</i><br>TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH .....   | 133-139 |
| <i>Raxmonov Mirvoxid Rajabovich</i><br>NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI .....  | 140-149 |
| <i>Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li</i><br>DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI ..... | 150-159 |
| <i>Aziza Umarova</i><br>AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING HORIJ TAJRIBASI .....   | 160-167 |
| <i>Абдуллаев Бунёд Ўткирович</i><br>СУРХОҲДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....   | 168-178 |
| <i>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich</i><br>SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN .....  | 179-185 |
| <i>Алиматова Наргис Абдухалиловна</i><br>КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ.....  | 186-197 |

### 09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

|   |         |
|---|---------|
| <i>Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna</i><br>F. NITSSHE “HAYOT FALSAFASI” KONSEPSIYASI IJTIMOY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI .....   | 198-204 |
| <i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i><br>INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOY TABIATI .....   | 205-211 |
| <i>Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна</i><br>РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ .....   | 212-218 |
| <i>Urinboyev Dilmurod Tura o'g'li</i><br>HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI.....  | 219-225 |
| <i>Яздонов Зикирилло Шукуруллоевич</i><br>АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ .....   | 226-231 |
| <i>Nabiyev Maxsud Abdumannonovich</i><br>IQTISODIY MADANIYATNING MAZMUNIVAMOHIYATI .....  | 232-238 |
| <i>Haydaraliyev Shuhratjon</i><br>MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI .....   | 239-243 |
| <i>Хамраев Сардорбек Шарафутдинович</i><br>ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ..  | 244-250 |
| <i>Xashimov Sheraxon Jo'raxonovich</i><br>O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN O'RNI .....  | 251-260 |
| <i>Хатамова Рашида Закиржановна</i><br>ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ .....  | 261-266 |
| <i>Патиев Холдор Икромович</i><br>ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ .....  | 267-275 |
| <i>Ismoilova Hayitxon Maxammadjonovna</i><br>FARG'ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY JARAYONLARDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI ..... | 276-280 |
| <i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i><br>GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING O'ZARO ALOQADORLIGI .....   | 281-287 |
| <i>Raxmankulov Farhod Raximkulovich</i><br>MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOY MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....   | 288-292 |
| <i>Shirinov Anvar Qanoatovich</i><br>MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI .....  | 293-299 |

*Xandamova Marifat Akramovna*  
 “OSOR AL-BOQIYA” – ABU RAYHON BERUNIY ILMIIY IJODINING DURDONASI..... 300-304

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*  
 IJTIMOIIY DAVLATDA IJTIMOIIY ADOLATNI TA’MINLASH VA IJTIMOIIY INSTITUTLARNING  
 MAQSADI ..... 305-311

*Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich*  
 MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR  
 TIZIMIDAGI O’RNI ..... 312-320

*Talapov Baxriddin Alijanovich*  
 DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL  
 XUSUSIYATLARI ..... 321-326

### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Ayuzmuratova Nurjamal Dastembayeva*  
 КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА..... 327-332

*Olga Filippova*  
 ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION ..... 333-345

*Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi*  
 INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O’ZBEK TILI O’ZLASHISH  
 MASALALARI ..... 346-351

*Narzieva Gulnoza Akbarovna*  
 LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI ..... 352-357

*Qodirova Mukaddas Tog’ayevna, Ibragimova So’g’diyona Ikrom qizi*  
 INGLIZ-O’ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING  
 QO’LLANILISHI ..... 358-362

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Tўраев Сардор Абдихаким ўғли*  
 ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ  
 ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ ..... 363-371

*Атаев Шокир Куранбаевич*  
 ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ  
 АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ ..... 372-377

*Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич*  
 ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПИНING АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ  
 ХУСУСИДА ..... 378-385

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Adizova Nigora Baxtiyorovna*  
 MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING DIVERGENT  
 TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH ..... 386-390

|   |         |
|---|---------|
| <i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i><br>O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARI TALABALARINING IJTIMOYIY-MADANIY<br>KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O'QITISHDA VIRTUAL<br>REALLIKDAN FOYDALANISH ..... | 391-400 |
| <i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i><br>BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI<br>TAKOMILLASHTIRISH.....  | 401-406 |
| <i>Kenjabaev Jahongir Abdisalimovich</i><br>METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES .....  | 407-411 |
| <i>Abdusamatov Alisher Sobirovich</i><br>TA'LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV .....  | 412-417 |
| <i>Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna</i><br>TA'LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI .....   | 418-422 |
| <i>Babayeva Maxfuza Abduvaitovna</i><br>TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI .....   | 423-429 |
| <i>Nazarova Zarrina Allaberdiyevna</i><br>MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH<br>USULLARI.....   | 430-435 |
| <i>Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna</i><br>O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-<br>SHAROITLARI .....  | 436-442 |
| <i>Умаров Азиз Авазович</i><br>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО<br>ЯЗЫКА .....   | 443-447 |
| <i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i><br>INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI<br>RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA).....                        | 448-453 |
| <i>Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna</i><br>DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA<br>CHIQRISH METODIKASI .....   | 454-461 |
| <i>Komilov Nodirbek Bokijonovich</i><br>THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE<br>COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS .....   | 462-466 |
| <i>Sapieva Nargiza Mamayusufovna</i><br>IQTIDORLI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI<br>IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH .....  | 467-478 |
| <i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i><br>XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING<br>DIAGNOSTIKASI .....  | 479-484 |

---

|  |         |
|--|---------|
| <i>Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich</i><br>SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI<br>HAMDA O‘QITISH USULLARINI TANLASH .....        | 485-492 |
| <i>Irgasheva Umida Raimjanovna</i><br>TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA<br>TAKOMILLASHTIRISH .....   | 493-498 |
| <i>Turayeva Lolaxon Yuldashevna</i><br>ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O‘RGANISH<br>VA NAMOYISH ETISH .....                                   | 499-505 |
| <i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i><br>TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK<br>XUSUSIYATLARI .....                                       | 506-510 |
| <i>Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna</i><br>OLIY O‘QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O‘QITUVCHINI TAYYORLASHNING<br>DEONTOLOGIK KOMPONENTI .....                               | 511-518 |
| <i>Xasanova Gulnoza Raxatjanovna</i><br>KREDIT-MODULLI TA‘LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA‘LIM MUASSASALARI<br>TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI ..... | 519-525 |

*07.00.00 – Тарих фанлари***Atavullayeva Shaxlo Musoyevna**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI**

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasining demokratik va huquqiy davlat qurishdan maqsad sifatida mamlakatda yashovchi har bir kishining huquq va erkinliklarini to'la kafolatlashni belgilab olgan edi. Buning uchun avvalo, O'zbekistonda uning huquqiy asosi, ya'ni Respublika Konstitusiyasi qabul qilingan edi. Mazkur maqolada aynan Birinchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unga bo'lgan tarixiy ehtiyoj masalasi tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, konsepsiya, suverenitet, demokratiya, strategiya, fuqarolik jamiyati, plyuralizm, ko'ppartiyaviylik.

**Atavullayeva Shakhlo Musayevna**  
Bukhara State Pedagogical Institute  
Lecturer of the Department of Social Sciences**HISTORY OF THE CREATION OF THE FIRST CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF  
UZBEKISTAN**

**Abstract.** The goal of building a democratic and legal state of the Republic of Uzbekistan was to fully guarantee the rights and freedoms of everyone living in the country. For this, first of all, its legal basis, i.e. the Constitution of the Republic was adopted in Uzbekistan. This article analyzes the adoption of the First Constitution of the Republic of Uzbekistan and the historical need for it.

**Key words:** Constitution, concept, sovereignty, democracy, strategy, civil society, pluralism, multipartyism.

**Атавуллаева Шахло Мусоевна**  
Бухарский государственный педагогический институт  
Преподаватель кафедры социальных наук**ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ ПЕРВОЙ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**Аннотация.** Целью построения демократического и правового государства Республики Узбекистан было полное обеспечение прав и свобод каждого проживающего в стране. Для этого, прежде всего, в Узбекистане была принята его правовая основа – Конституция Республики Узбекистан. В данной статье анализируется принятие Первой Конституции Республики Узбекистан и его историческая необходимость.

**Ключевые слова:** Конституция, концепция, суверенитет, демократия, стратегия, гражданское общество, плюрализм, многопартийность.

XX asr 80-yillarining ikkinchi yarmiga kelib, Sovet Ittifoqi hududidagi respublikalarda tub siyosiy o'zgarishlar yangi ijtimoiy, siyosiy va huquqiy yangilanishlarni yuzaga keltirdi. Sobiq ittifoq davridagi kommunistik partiya davlat boshqaruvida turli to'siqlarni vujudga keltirib, mamlakatdagi barcha sohalarning rivojlanishga to'sqinlik qila boshladi. Iqtisodiy inqiroz xalqlarning turmush sharoitiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsata boshladi. Markaz zulmi kuchayishi natijasida ittifoqda yashovchi xalqlar azob chekishdi, kelajakka ishonchsizlik bilan qarash hamda turli millatlarni kamsitish holatlari kuchaydi. Paxta ishi, o'zbek ishi deb uyushtirilgan kompaniyalarda barcha birdek tazyiqqa uchradi. Ayollar, yosh bolalar jabr ko'rishdi, milliy, diniy, tarixiy qadriyatlar toptaldi. Natijada, ittifoq tarkibidan chiqish hamda mustaqil davlat qurish harakatlari kuchaydi. Bu harakatlar real voqelikka aylandi. Ayniqsa, mustaqillikka bo'lgan intilishlar Boltiqbo'yi respublikalarida kuchli namoyon bo'ldi. Kommunistik partiya, uning o'sha vaqtdagi rahbarlari ittifoqni hamda mavjud tuzumni saqlab qolish uchun qattiq harakat qildilar. Yangi ittifoq shartnomalarini tuzish, shu orqali ittifoqni saqlab qolish uchun katta urinishlar amalga oshirilganiga qaramay, Tbilisi va Vilnyusda bo'lib o'tgan voqealar, qonli to'qnashuvlar bu harakatlarning asl maqsadini hamda ittifoqni saqlab qolish puch g'oya ekanligini ko'rsatdi.

Sovet Ittifoqi siyosiy tizimda islohotlar o'tkazish hamda vakillik organlarining yangi turlarini yaratish, shu bilan birga, saylov tizimini isloh qilish ishlarini amalga oshirdi. SSSR hududida Xalq deputatlari syezdi deb nomlangan eng yuqori vakillik organi tashkil etildi. Ushbu organga bo'lib o'tgan saylovlar ilk marotaba muqobillik asosida o'tkazildi. 1988-yil o'tkazilgan ushbu saylov natijasida esa organga xalq dardini qo'rqmasdan ochiqchasiga ayta oladigan, haqiqatni har narsadan ustun qo'yadigan ko'plab insonlar saylandi. Syezd Ittifoq miqyosidagi masalalarni hal qiladigan organdan ko'ra, ittifoqda sodir bo'layotgan turli muammolarni ochiq-oydin ko'rsatib beradigan, turli xalq va millatlarda vujudga kelayotgan muammolarni yaqqol ayta oladigan minbarga aylandi. Buning natijasida, ko'p fikrlilik vujudga keldi.

Bu o'z navbatida, Sovet Ittifoq kommunistik partiyasini obro'siga putur yetkaza boshladi. Dastlab, ayrim respublikalardagi kommunistik partiyalar Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi tarkibidan chiqqanligi e'lon qildi. Keyinchalik esa respublikalar mustaqilligi e'lon qilina boshlandi. Sovet Ittifoqini saqlab qolishga bo'lgan oxirgi jiddiy harakat - bu 1991-yil 19-avgustda Favqulodda holat davlat qo'mitasini (FHDQ) tashkil qilish bo'ldi. Ittifoqning amaldagi Prezidenti kasalligi sabab qilib ko'rsatilib, vazifasidan chetlatildi hamda Prezident vazifasi vitse-prezident qo'lga o'tdi. U bir guruh kishilar bilan birga FHDQga boshchilik qildi. Qo'mitaning maqsadi barcha respublikalarning qo'lga kiritgan yutuqlarini yo'q qilishdan iborat edi. Moskvaga harbiy texnikalar hamda qo'shin kiritildi. Ommaviy axborot vositalari faoliyati taqiqlandi. Moskva aholisi tomonidan olib borilgan qattiq kurashi natijasida favqulodda organ o'z faoliyatini 21-avgustda tugatgan edi.

Ittifoq markazida bo'lgan voqealar totalitar tuzumni qayta tiklashga hamda demokratik yutuqlarni yo'q qilishga bo'lgan harakatlar Ittifoq tarkibidagi respublikalarning keyingi faoliyati qanday yo'l bilan olib borilishini hal etish zarurati asosiy vazifa bo'lib qoldi. 1991-yil 31-avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov mamlakat mustaqilligini e'lon qildi. Bunday xabardan keyin ko'pchilik deputatlar hayratga tushdi. Buning sababi, ko'pchilik mustaqillikni orzu qilsa-da, uni ochiqchasiga bayon qila olmas hamda uning qanday oqibatlarga olib kelishini

tasavvur qila olmas edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kutilmaganda mustaqillikni e'lon qilishi, uning jasorati natijasi hamda o'zbek xalqi uchun amalga oshirgan eng buyuk xizmati bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini e'lon qilish nisbatan oson kechdi, deyish mumkin, ammo mustaqillikni saqlash hamda undan faqat ijobiy foydalanish juda mas'uliyatli vazifadir. Mustaqillikka erishgandan so'ng yuzaga keladigan barcha muammolarni boshqa davlatlar yordamisiz hal qilishga to'g'ri kelar edi. Birinchi navbatda, fuqarolarning tinchligini hamda ularning munosib hayot kechirishini ta'minlash zaruriyati edi. Bu, o'z navbatida, mamlakatning ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlash zaruratini vujudga keltirdi. Mustaqillikdan so'ng davlatning keyingi ishlarini munosib amalga oshirishi uchun mos bo'lgan yo'lni aniqlab olish zarur edi. Shuning uchun, O'zbekiston rahbariyati xalqaro maydonda kechayotgan voqealardan kelib chiqib, xalq xohish-irodasiga tayangan holda demokratik davlat qurish yo'lini tanladilar. Buning uchun demokratik talablarga javob beradigan davlat hokimiyatini qurish, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodni tashkil etish; fuqarolar manfaatiga asoslangan fuqaro, jamiyat, davlat munosabatlarini o'rnatish, unda fuqaro manfaatlarining ustunligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, qadr-qimmati va sha'nini oliy qadriyat darajasiga ko'tarish; mamlakatda yashovchi barcha millatlar manfaatlarini birdek ta'minlash, mamlakat xavfsizligini ta'minlashga asoslangan tashqi siyosat olib borish mamlakatimiz oldidagi eng muhim vazifalar sifatida belgilab qo'yildi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, huquqiy asoslarni yaratish hamda ularni huquqiy normalarda belgilash zarurati vujudga keldi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda esa mamlakatimizda yangi konstitutsiya ishlab chiqishga zarurat tug'ildi. Shunday qilib, konstitutsiya yaratish zarurati nima degan savolga O'zbekiston mustaqilligi va mustaqillik sababli paydo bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish zaruratining vujudga kelganligidir, deb javob bersak maqsadga muvofiq bo'lar edi [1].

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini yaratish haqidagi ilk g'oya 1990-yil mart oyida bo'lib o'tgan o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasida aytilgan edi. O'zbekiston Oliy Kengashining 1990-yil 20-iyunda e'lon qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi" mamlakatimiz Konstitutsiyasini ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qildi. O'sha kundayoq Oliy Kengash davlat rahbari boshchiligida 64 kishidan iborat konstitutsiyaviy komissiyani tuzdi. Komissiya tarkibiga deputatlar, davlat hamda jamoat tashkilotlari, korxonalar xo'jaliklarining rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar va mutaxassislar kiritildi.

Komissiya tomonidan Konstitutsiya konsepsiyasi yaratish ustida qizg'in ish olib borilib, uchta muqobil konsepsiya ishlab chiqildi: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Falsafa va huquq institutining konsepsiyasi, Siyosatshunoslik va boshqaruv institutining konsepsiyasi va Prezident devoni yuridik bo'limi tomonidan tayyorlangan konsepsiya. Konstitutsiyaviy komissiya majlisida uchinchi konsepsiya asos sifatida qabul qilindi.

Konstitutsiya loyihasining dastlabki namunasi 1991-yil 3-choragida tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'lim, 158 moddadan iborat edi. Bu orada 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishdi hamda mustaqillikka asos sifatida O'zbekiston Respublikasining "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlarining oliy darajada ekanligi, qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo'linishi, mamlakatning hududiy yaxlitligi kabi prinsiplar mustahkamlab

qo'yilgan edi. Bundan tashqari, ushbu kunda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida "Davlat Mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti" ham e'lon qilindi.

Shunga qaramasdan, konstitutsiyaning dastlabki namunasi hali mukammal darajada emas edi. 1992-yil bahorda Konstitutsiya loyihasining 149 moddadan iborat ikkinchi namunasi ishlab chiqildi. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti ishtirokida Konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi majlisi o'tkazildi. Majlisda Konstitutsiya loyihasi ustida olib borilgan ishlar to'g'risida axborot tinglandi. Tinglanganlar asosida ishchi guruh tomonidan Konstitutsiya loyihasining uchinchi nusxasi tayyorlandi.

Konstitutsiya loyihasi ustida amalga oshirilgan puxta ishlovlardan so'ng Konstitutsiyaviy komissiya qarori asosida 1992-yil 26-sentabr kuni umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi qariyb uch oy davom etdi. Matbuotda, radio va televideniye orqali, korxonalar, muassasa hamda tashkilotlardagi yig'ilishlarda qizg'in muhokamalar bo'lib o'tdi. Konstitutsiyaviy komissiya dastlab belgilagan ikki yarim oylik muddat mobaynida muhokama qilingan loyiha fuqarolarning takliflari asosida qayta tuzib chiqildi hamda 1992-yil 21-noyabrda ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi [2].

Umumxalq muhokamasi davomida loyihani mukammallashtirishga doir ko'plab takliflar yuborildi. Konstitutsiyaviy komissiyasining o'ziga 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar kelib tushdi. Ushbu taklif va mulohazalarning barchasi atroflicha o'rganib chiqilib, ulardan loyiha davomida ulardan foydalanildi. Konstitutsiyaviy komissiyaga fuqarolar tomonidan ularning fikr va mulohazalari bildirilgan 600 taga yaqin xat jo'natildi. Bundan tashqari, Respublika matbuoti tomonidan Konstitutsiya loyihasiga bag'ishlangan yuzdan ortiq materiallar e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaratishning tarixiy zaruratiga quyidagilarni kiritish mumkin: Sobiq Ittifoqda paydo bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolar; O'zbekiston Respublikasining o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi hamda yangi mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi; "Mustaqillik deklaratsiyasini" va "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlarning qabul qilinishi [3].

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi Asosiy Qonun sifatida davlatni davlat, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrardir [4]. "...Islom Abdug'aniyevich Karimov rahbarligida 1990-yil iyun oyida tuzilgan komissiyaning ikki yillik mashaqqatli mehnati natijasida Konstitutsiyaning birinchi, ikkinchi so'ngra uchinchi loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu komissiya a'zosi sifatida men ham shu tarixiy jarayonda ishtirok etganimni doimo faxr bilan eslayman. Konstitutsiyaning yaratilishi bilan bog'liq qizg'in bahs-munozaralar, turli g'oya va fikrlar hali ham xotiramda" [5].

Konstitutsiyamiz xalqimiz irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini o'zida aks ettiradi. Negaki, Asosiy qonunimizni yaratilishida hamda uning muhokama qilishda butun xalq birgalikda ishtirok etdi. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan, huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda" [6], degan so'zlar bilan Konstitutsiyamizga hamda uning yaratilishida muhim omil sifatida qaraladigan xalqimiz ongiga aniq-ravshan ta'rif berilgan.

Asosiy qonunimiz davlatchiligimiz tarixida qabul qilingan eng demokratik Konstitutsiya hisoblanadi. Negaki, unda shaxs va davlat orasidagi munosabatlarda birinchi o'ringa shaxs ustuvorligi hamda uning huquqi, qadr-qimmati, sha'ni oliy darajali qadriyat sifatida mustahkamlangan. Bundan tashqari, yashash huquqi asosiy huquq sifatida belgilab qo'yildi. Konstitutsiyada ko'ppartiyaviylik hamda fikrlar xilma-xilligi belgilab qo'yildi. Hokimiyatni tashkil etishda hokimiyatlar bo'linish prinsipiga asoslanish mustahkamlandi. Fuqarolik jamiyati asosi sifatida o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqeyi konstitutsiyaviy darajaga ko'tarildi.

Shunga qaramay, muayyan darajada va toifada o'zaro bog'liqlik saqlanib qolgan bo'lsa-da, konstitutsiya va amaldagi qonunlarga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar orasida oldingidek bog'liqlik mavjud emas edi. Yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslangan holda, konstitutsiyaning qabul qilinishi mamlakatda huquq sohasida amalga oshirilgan islohotlarning eng yuqori nuqtasi bo'lib xizmat qildi. Ikkinchidan, O'zbekiston mustaqil demokratik davlat sifatida o'z Konstitutsiyasini o'zi ishlab chiqdi. Shu bilan birga, Asosiy qonunimizni qabul qilishda xalqaro huquq me'yorlari, umumbashariy huquqiy qadriyatlar hamda rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy tajribasi o'ziga xos namuna vazifasini bajardi. Uchinchidan, respublikada amalga oshirilgan bir qator konstitutsiyaviy o'zgarishlar Sobiq Ittifoqda yuz bergan o'zgarishlardan ham oldin sodir bo'ldi. Xususan, prezidentlik lavozimi Sobiq Ittifoqi respublikalari ichida birinchi bo'lib ta'sis etildi. Bundan tashqari, ilk marotaba Ministrlar Soveti o'rniga Vazirlar Mahkamasi o'z ish faoliyatini boshladi. O'z navbatida, ijro etuvchi hokimiyat bevosita respublika Prezidentiga bo'ysundirildi.

Davlat mustaqilligi qo'lga kiritilishi sharofati bilan XX asrning so'nggi 10 yillicida O'zbekiston Respublikasining to'laqonli yangi hamda demokratik asosdagi Konstitutsiyasini yaratishdek ulkan tarixiy imkoniyat vujudga keldi. 1992-yil 8-dekabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq o'n birinchi sessiyasida mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat tarixida misliko'rilmagan voqea bo'ldi [7].

Konstitutsiyamiz dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren demokratik davlat - O'zbekiston Respublikasi tashkil topganligini qonunan mustahkamlab qo'ydi. Butun jahon ahliga xalqimizning xohish-irodasi bayon qilinib, unda o'zbek davlatchiligini zamonaviy ma'rifiy asoslarda qayta tiklash, tinch-totuv yashash va davlatning ichki tinchligini mustahkamlash, demokratiyani chuqurlashtirish, inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalarini mustahkamlash, adolatli huquqiy davlat barpo etish, fuqarolar osoyishtaligini hamda milliy hamjihatlikni ta'minlash kabi inson manfaatlarini ko'zlaydigan maqsad va vazifalar e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti, Konstitutsiyaviy komissiyaning raisi Islom Karimov Oliy Kengashning o'n birinchi sessiyasida Konstitutsiya loyihasi ustida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan so'zlagan nutqida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: "Hur O'zbekistonimiz tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish - Respublikamizning yangidan tug'ilishidir, haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir. Konstitutsiyamiz asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrar" [8].

O'zbekistonning Konstitutsiyasi oliy darajadagi qonun sifatida davlatimiz qiyofasini, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumini, boshqaruvning demokratik prinsiplarini, jamiyat

rivojlanishining strategik yo'nalishlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklari tartibga solinganligini hamda ma'naviy qadriyatlarimiz asoslarini mustahkamlab berdi.

Xulosa qilib aytish lozimki, mustaqil O'zbekiston Respublikasi Birinchi Konstitutsiyasining yaratilishi va qabul qilinishi xalqimizning haq-huquqlari majmui hamda ular qonun bilan tartibga solinganligining mustahkam huquqiy asosi sifatida tarix zarvaraqlaridan muqim joy oldi. U xalqimizning davlat irodasini, qat'iy siyosiy ruhiyatini, ijtimoiy ongining naqadar yuksakligini hamda huquqiy madaniyatini o'zida aks ettirdi deb aytishimiz mumkin. Shu bilan birga, xalqimizning fozil, barkamol jamiyat yaratish maqsadi, davlatimiz qiyofasi, uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimining demokratik xususiyatlari, umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan e'tibori hamda unga sodiqligi, fuqarolarning huquq va erkinliklari huquqiy jihatdan qat'iy kafolatlanganligini o'zida mujassam etdi.

### **Адабиётлар / Литература / References:**

1. Husanov O.T. Konstitutsaviy huquq. -T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2020. -B.37-38.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. -T.: "Sharq", 2013. - B.15.
3. O'razayev Sh.Z. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiya. -T.: "Adolat", 1994. -B.7.
4. Karimov I.A. O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat. -T.: "O'zbekiston", 1992. -B.44.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.: "O'zbekiston", 2018. -B.5.
6. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi", 2017-yil 8-dekabr.
7. Rustamboev M.X, Axmedov D.Q, Xidirov S.M, Bekov I.R. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. -T., 2005. -B.18.
8. Karimov I.A. O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. -T., 1992. - B.44.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).